

Sobirova Nodira Jumanazar qizi
Urganch davlat universiteti,
“Geografiya” yo’nalishi 3-bosqich talabasi
Собирова Нодира Жуманазар кизи,
Урганческий государственный университет,
студент 3-го курса направления “География”
Sobirova Nodira Jumanazar kizi,
Urgench state university,
student of the 3rd stage of the "Geography" course

**ZARDUSHTIYLIK DININING TARQALGAN HUDUDLARI VA UNING
XORAZM MADANIYATIGA TA’SIRI
АРЕАЛЫ РАСПРОСТРАНЕНИЯ ЗОРОАСТРИЗМА И ЕГО ВЛИЯНИЕ
НА КУЛЬТУРУ ХОРЕЗМА
THE AREAS WHERE ZOROASTRIANISM SPREAD AND ITS
INFLUENCE ON KHOREZM CULTURE**

Annatatsiya. Maqola Xorazm viloyatining madaniyatiga diniy ta’sirlarni o’rganadi, xususan zardushtiylik dini va uning Avesto kitobi hamda monumentlari orqali hududning urf-odatlari, bayramlari va raqs-musikasi shakllanishi tahlil qilinadi. Ushbu tadqiqot Xorazm madaniyatining diniy va tarixiy qatlamlarini chuqurroq tushunishga yordam beradi.

Kalit so’zlar: Xorazm viloyati, Zardushtiylik, diniy ta’sir, Avesto, Xorazm madaniyati, Folklor, Lazgi, Tuxum barak.

Аннотация. В статье рассматривается влияние религиозных течений на культуру Хорезмского региона, в частности, зороастризма, его книги и памятников Авесты, анализируется формирование обычаев, праздников, танцев и музыки региона. Данное исследование способствует более

глубокому пониманию религиозных и исторических пластов культуры Хорезма.

Ключевые слова: Хорезмская область, зороастризм, религиозное влияние, Авеста, хорезмийская культура, фольклор, лазги, Тухум Барак.

Abstract. The article examines the religious influences on the culture of the Khorezm region, in particular, the Zoroastrian religion and its Avesta book and monuments, analyzing the formation of the region's customs, holidays, and dance and music. This study contributes to a deeper understanding of the religious and historical layers of Khorezm culture.

Keywords: Khorezm region, Zoroastrianism, religious influence, Avesta, Khorezm culture, Folklore, Lazgi, Tukhum Barak.

Kirish. Xorazm viloyati — O‘zbekistonning qadimiy madaniy markazlaridan biri bo‘lib, boy tarixiy meros va turli dinlar bilan boyitilgan madaniy muhitga ega. Hudud uzoq asrlar davomida turli e‘tiqodlar, jumladan zardushtiylik, buddizm va keyinchalik Islom dini ta‘sirida shakllangan. Bu dinlar nafaqat Xorazmning diniy hayotiga, balki uning urf-odatlarini, bayramlari, san‘ati va raqs-musikasi kabi madaniy jihatlariga ham chuqur ta‘sir ko‘rsatgan. Shu bois, Xorazm madaniyati tarixini o‘rganish, uning diniy va madaniy qatlamlarini tahlil qilish orqali viloyatning madaniy o‘ziga xosligini va xalq an‘analari rivojlanishining ildizlarini yanada teranroq tushunish mumkin.

Asosiy qism. Zardushtiylik (Zarathushtrizm) eramizdan avvalgi I–VI asrlarda paydo bo‘lgan qadimgi dinlardan biri bo‘lib, asosan monoteistik yoki dualistik e‘tiqodlarga asoslangan. Uning asoschisi Zardusht (Zarathushtra) bo‘lib, asosiy e‘tiqodlari Ahura Mazda (yaxshilik ilohi) va Angra Mainyu (yomonlik kuchi) mavjudligiga asoslanadi. Din olovga muqaddaslik sifatida qaraydi, ibodatlar olov yonida o‘tkaziladi. Inson hayoti axloqiy tanlov va yomonlik bilan kurash orqali shakllanadi [1]. Turli ibodatlar o‘tkazilgan payt olov yoqish odati haligacha yoshi kattalar orasida ba‘zi hududlarda saqlanib qolgan. Zardushtiylik dastlab Eron hududida paydo bo‘lgan, keyinchalik Movarounnahr (jumladan, Xorazm), Buxoro,

Samarqand va Hindiston (Parsi jamoalari) hududlarida tarqalgan. O'zbekistonda, xususan Xorazm viloyatida, zardushtiylik ta'siri arxeologik topilmalar — qadimiy ibodatxonalar, mazarlar va yozuvlar orqali aniqlangan [2,3]. Zardushtiylik odatlari Xorazmda haligacha saqlanib qolgan. Masalan: yangi kelinchak kelgan payt olov yoqiladi va kelinchak olov ustidan o'tqaziladi, yangi kelin-kuyov kelayotgan avtomobil yo'liga ham kichik qilib olov yoqiladi hamda yangi tug'ilgan chaqaloq uyga kelgan paytda onasi bilan birgalikda olov ustidan o'tkaziladi. Shu kabi zardushtiylik odatlari saqlanib qolgan.

Avesto — zardushtiylikning muqaddas kitobi bo'lib, qadimgi eron tilida yozilgan. Unda ibodatlar, marosimlar, qo'shiqlar va axloqiy ta'limotlar keltirilgan[1]. Xorazmda Urganch shahrida Avesto bog' majmuasi va uning tarkibida Avesto me'moriy majmuasi bunyod etilgan. Majmua 2001-yili Xorazmda „Avesto“ning 2700 yilligini nishonlash tadbirlarini o'tkazish oldidan bunyod etilgan.

Xorazm viloyati qadimiy tarixiy merosga boy bo'lib, Urganch va Xiva shaharlarida ilm-fan, savdo va hunarmandchilik rivojlangan. Bayramlardan Navro'z, Qurbon hayiti, Ramazon hayiti xalq urf-odatlariga mos ravishda nishonlanadi. Atlas va adras matolari, sopol buyumlar va kulolchilik rivojlangan. Taomlardan viloyatning o'ziga xos bo'lgan, boshqa joylarda uchramaydigan : shivit oshi, ijjon, tuxum barak, unoshi kabi taomlari mashhur. Xorazm folklori o'ziga xos maqom va ashula an'analari bilan ajralib turadi. Xorazm lazgizi mashhurdir. Xorazm lazgisi viloyatning milliy identifikatori hisoblanadi. Xorazm lazgisi dastlab ohista tana harakatlari bilan boshlanganligi, ruhning tanaga kirishiga o'xshatiladi. Bu Islom dinining madaniyatga ta'siri deb ham baholash mumkin.

Xulosa: Xorazm viloyatining madaniyati ko'p asrlar davomida turli dinlarning, xususan zardushtiylik va Islomning ta'siri ostida shakllangan. Zardushtiylik dini va uning Avesto kitobi hamda monumentlari hududning urf-odatlari, bayramlari, san'ati va raqs-musikasiga sezilarli ta'sir ko'rsatgan. Shu bilan birga, Islom dini madaniyatning yanada boyishiga va tasavvufiy talqinlarning shakllanishiga hissa

qo'shgan. Xorazm madaniyatidagi bu diniy qatlamlar viloyatning tarixiy va madaniy o'ziga xosligini yanada boyitib, xalq an'analari va folklorining rivojlanishida muhim rol o'ynagan.



Qadimiy zardushtiylik e'tiqodi va keyinchalik Islom dini Xorazm madaniyati, urf odat va diniy marosimlarga ta'sir ko'rsatgan[4,5].

Adabiyotlar ro'yxati

1. Boyce, Mary. Zoroastrians: Their Religious Beliefs and Practices. London: Routledge, 2001, s.45-50.
2. Dhalla, Maneckji N. History of Zoroastrianism. London: Oxford University Press, 1938, s.112
3. Houtsma, M. Th. E.J. Brill's First Encyclopaedia of Islam, 1913–1936. Leiden: Brill, 1936, s.220
4. Sobirov, A. Xorazm tarixi va madaniyati. Urganch, 2010, s.35-40
5. Komilov, Sh. O'zbekistonning viloyatlari: madaniy va tarixiy o'rganish. Toshkent, 2015, s.78-80.

6. O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. Toshkent, 2000–2005.